

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA PARDOZ MAHSULOTLARI NOMLARINING LEKSIKOLOGIYADAGI O'RNI

Mengpo'latova Hafiza Muhiddinovna
Magistr, mengpolatovah@gmail.com

Annotatsiya:

giper-giponimiya, pardoz, makiyaj, surma, konsiler

Bugungi kunimizda har bir soha shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Boshqa sohalar kabi tilshunoslik ham ushbu jarayondan ortda emas. Yangidan yangi ilmiy terminlar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Jins-tur munosabatini ifodalash asosida bog'langan giponimik paradigmalarni o'rghanish va ularni alohida kichik tizimlar sifatida ajratishni hisobga olganda tilshunoslikda bunday munosabatni o'rghanishga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda. Giponimiya, giponim hamda giperonim atamalari dastlab 1968 - yilda ingliz tilshunosi professor D. J. Layonz tomonidan qo'llanildi. Shundan keyin giponimiya haqidagi dastlabki ilmiy, axborotlar rus tilshunosligida ham vujudga kela boshladi. Taniqli rus tilshunoslari A. A. Ufimtseva, L. Novikov, Zemskiy va boshqalarning ishlarida, Fomyanova hamda Suprun tahriri ostida chop etilgan «Общие языкоznания» kitobida, Yu. S. Stepanovning «Общие языкоznания» nomli asarida hamda fransuz tilshunosi V. G. Gakning asarlarida ham bu atama dastlabki ilmiy mulohazalar sifatida ifodalangan. O'zbek tilshunosligida esa R. Safarova ilmiy qo'llanmasida, N.K. Jumaevaning izlanishlarida ko'rishimiz mumkin.

Biz giponimiya hamda so'zlarning gipo-giperonimik qatori atamalari ostida ma'nosiga ko'ra ob'ektiv borliqdagi jins-tur munosabatini ifodalashga xizmat qiladigan so'zlar qatorini, leksik paradigmalarni tushunamiz. So'zlarning sinonimik qatori: a) giperonim, b) giponimdan iborat. Giperonim – jins belgisini bildirgan predmetning nomini ifodalovchi ko'pgina ma'nolarni semantik jihatdan umumlashtiruvchi mikrotizimning markaziy so'zi, dominantasi sifatida namoyon bo'luvchi lug'aviy birlikdir¹. Giponim — ma'lum jins turlarining nomlarini ifodalovchi hamda o'zining semantik tarkibida inplitsid tarzda jins ma'nosini

¹ Р. Сафарова Лексик-семантик муносабатнинг турлари Тошқент «Уқитувчи» 1996, 14-б





ifodalovchi tarkibda so‘zni biriktirib kelgan, semantik jihatdan giperonimga nisbatan boy bo‘lgan lug‘aviy birlik.²

Giper-giponimik munosabatlarni pardoz vositalariga nisbatan qo‘llash fanga o‘zbek pardoz vositalarining terminologiyasini boyitishga, muqobilsiz leksikalarni bartaraf qilishga, hamda iqtisodiy nuqtayi nazardan yordam berishga, ko‘maklashadi. Bu mavzuda ishslashning foydali tomonlari o‘zbek izohli lug‘atlarini yanada yangi atamalar bilan boyitishga hamda ularni mukammallashtirishga xizmat qiladi. Pardoz vositalarining giper-giponimik munosabatlari yuzasidan chet el adabiyotida yetarlicha ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Rus tilshunosligida Alfiya Kikicheva pardoz vositalarining semantik maydoni haqida izlanishlar olib borgan. Pardoz qilish fenomeni jamiyatda mashxur bo‘lganligi va kosmetika mahsulotlari, xususan, go‘zallik sanoatidagi yangi mahsulotlar keng talabga ega bo‘lganligi sababli, **makiyaj** leksik semantik maydonida lug‘atlar doimiy ravishda yangilanadi. Leksemalarning semasi konteksda aniqlanishi ma’lum. Shu sababdan makiyaj vositalari va ular bilan birga ifodalanadigan sememalar o‘zining asl ma’nosidan farq qilishi mumkin.

Upa – Gigiyyena va kosmetika maqsadlarida ishlatiladigan xushbo‘y va nihoyatda mayin kukun. Yog‘upa. Upa qutichasi. Upa qo‘ymoq. Pardoz asosi vazifasini bajaradi. Kollagen

Konsiler - Teridagi nuqsonlar va dog‘larni qoplash va yashirish uchun ishlaydigan pigmentli formuladir.

Fiksator – narsalarni muayyan holatda mahkamlab qo‘yadigan moslama.³ Bunda pardozdan so‘ng **fiksator** qoshga shotka yordamida qo‘yiladi va pardoz uzoq muddatga saqlanib qoladi.⁴

Qosh geli – qoshlarga jilo beradi, maxsus selikon shotka bilan suriladi.

Qosh qalami – qoshga ishlov beradi. Ayollar orasida eng ommabop kosmetik bo‘yoq.

Tatuirovka so‘zi tilimizga kirib kelganiga ham 20 yildan oshyapti. Bu so‘zni eshitgan insonning ko‘z o‘ngida tanasiga har xil rasmlar chizdirgan insonlar keladi. Misrliklar ham tanasiga **tatuirovka** chizdirib yurgan dastlabki xalqlardan biri bo‘lgan. Olimlar buni Yangi Qirollik piramidalaridagi ayollar haykalchalarini

² P. Сафарова Лексик-семантик муносабатнинг турлари Тошқент «Уқитувчи» 1996, 15-6

³ Vikilug‘at

⁴ Muslimat.uz



o‘rganish orqali aniqlaganlar. Tatuirovka ayollarning jozibadorligini oshirish uchun yaratilgan.

Tatuaj — permanent pardoz, ya’ni yuzdagи a’zolar — lab, ko‘z va qoshni uzoq vaqt (3, 5, 7 yilgacha) ketmaydigan qilib bo‘yab, pardoz berish.⁵ So‘nggi yillarda ayollar orasida nihoyatda urf bo‘lgan pardoz turi.

Rastishovka – qoshga, ko‘zga, labga uzoq muddatga o‘chmaydigan qilib ishlov berilgan pardoz turi.

Surma – turkcha „syurme” so‘zidan olingan bo‘lib, „surish”, „qoshlarni qoraytirish” degan ma’noni ifodalaydi.⁶ Qoshlarni, ko‘zlarni bo‘yash uchun ishlatiladigan qoramtilar pardoz bo‘yog‘i. Surma faqatgina pardoz buyumi bo‘lmasdani, balki ko‘zni ravshanlashtirish, qosh va kipriklarni o‘stiruvchi shifobaxsh modda hisoblanadi. Yuzlari xuddi olmaday tarang. Bir juft quralay ko‘zi **surma** bosganday qora, bir qarashi bilanoq yuragimni taka-puka qilib tashladi.⁷ Hamza qalamiga mansub ushbu satrlarda oshiq o‘z sevgilisining go‘zalligini yuksak ijodiy mahorat bilan qalamga olgan.

Xulosa qilib aytganda, giper-giponimiya haqida tilshunosligimizda tadqiqotlar judayam miqdori ozchilikni tashkil qiladi. Yuqorida keltirilgan misollarda pardoz vositalarining nomlanishini ko‘rishimiz mumkin, Bu bo‘yicha izlanishlarning, ilmiy ishlarning ko‘payib borishi leksikografiyamizni boyitishga, so‘zlarning ma’no tomonining ko‘payishiga hissa qo‘sadi degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. R. Safarova “Leksik-semantik munosabatning turlari” Toshkent “O‘qituvchi” 1996
2. Vikilug‘at
3. Muslimat.uz
4. Muxlis.uz
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati izoh.uz sayti
6. Hamza, Tanlangan asarlar 1-tom. She’rlar. 4. Rizayev.

⁵ Muxlis.uz

⁶ O‘zbek tilining izohli lug‘ati izoh.uz sayti

⁷ Hamza, Tanlangan asarlar 1-tom. She’rlar. 4. Rizayev, Sh. (1997)